

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONNING TASHQI SIYOSATI

Habibullayeva Gulhayo Niyozbek qizi

(Andijon davlat universiteti tarix fakulteti -guruh talabasi)

Abdullayev Begzodbek Xusniddin o‘g‘li

(Andijon davlat universiteti tarix fakulteti o‘qituvchisi)

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonning mustaqillik yillaridagi tashqi siyosatini samarali yo‘lga qo‘yish, tashqi siyosatining asosiy tamoyillari va jahonning bir qancha rivojlangan davlatlari bilan diplomatik aloqalari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, asosiy prinsiplari, vakolatxonalari, tashqi siyosiy faoliyatining, Konsepsiya, suveren tengligi va chegaralar daxlsizligi, tashqi kuchlar, Turkiya, Xitoy, Yaponiya, Eron

Abstract: This article describes the effective implementation of Uzbekistan's foreign policy in the years of independence, the main principles of its foreign policy and diplomatic relations with several developed countries of the world.

Key words: Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Uzbekistan, main principles, authorities, foreign political activity, Concept, sovereign equality and inviolability of borders, foreign powers, Turkey, China, Japan, Iran.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng turli xil sohalar qatori tashqi siyosiy yo‘nalishlarni rivojlantirish bo‘yicha amaliy harakatlarni boshlagan. O‘zbekiston o‘z oldiga nafaqat izchil ichki siyosat yuritishni, balki faol tashqi siyosat yuritishni ham asosiy vazifa qilib qo‘ygan bo‘lib, shu maqsad yo‘lida tizimli ishlar olib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatini samarali yo‘lga qo‘yish, Respublikaning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun qulay tashqi shart-sharoitni vujudga keltirish, xalqaro munosabatlarda va xorijiy mamlakatlarda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va davlat manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 25-mayda “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati 1994-yil mart oyida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi va 1996-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi qarorlar asosida shakllantirildi. Shu tufayli istiqlol yillarida davlatimiz 133 dan ortiq mamlakatlar bilan rasmiy munosabatlar o‘rnatdi, hozirda Toshkentda 45 ta xorijiy davlatlarning elchixonalari, 9 ta konsullik, 11 ta xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari faoliyat olib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi siyosatining asosiy tamoyillari, prinsiplari, strategik ustuvor yo‘nalishlari,

maqsad va vazifalari 2012-yil sentabrda qabul qilingan “Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi”da o‘z aksini topgan. Bu konsepsiya O‘zbekiston milliy manfaatlarini ilgari suradigan ustuvor yo‘nalishlarni belgilab beradigan qarashlarning yaxlit tizimidir. Mazkur Konsepsiyada Markaziy Osiyo mintaqasiga alohida e‘tibor qaratilgan va «O‘zbekistonning hayotiy muhim manfaatlar shu mintaqa bilan bog‘liq» ekanligi rasman e‘tirof etilgan. Unda Markaziy Osiyo o‘zining muhim geosiyosiy joylashuvi va mineral xomashyo resurslarining ulkan zahiralariga ega ekanligi tufayli jahon miqyosida kuchli e‘tibor ob‘yektiga, yirik davlatlarning strategik manfaatlarini to‘qnashadigan hududga aylanib borayotgani ta’kidlangan. Shuningdek, dunyoning yirik davlatlari tomonidan mintaqada olib borilayotgan o‘zaro raqobat inobatga olinib, «Markaziy Osiyo muammolari tashqi kuchlarning aralashuvisiz, mintaqadagi davlatlarning o‘zlari tomonidan yechilmog‘i zarur», degan fikr bayon etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: mafkuraviy qarashlardan qat’i nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik; davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish; boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik; nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish; kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik; inson huquqlari va erkinliklarini hurmatlash; ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligi; davlatning, xalqning oliy manfaatlarini, farovonligi va xavfsizligini ta’minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo‘stliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish; tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik; davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi; tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko‘p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik kabilar ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab olindi. Shundan so‘ng O‘zbekiston jahonning bir qancha davlatlari bilan diplomatik aloqalarni o‘rnatdi.

Turkiya O‘zbekiston mustaqilligini birinchi bo‘lib tan olgan mamlakatdir. 1991-yil dekabrda O‘zbekiston Prezidenti I. A. Karimov Turkiyaga rasmiy tashrif bilan bordi. Mamlakat Prezidenti Turgut O‘zal, Bosh vazir Sulaymon Demirel va ishbiarmonlar bilan uchrashib, O‘zbekiston Respublikasi va Turkiya jumhuriyati o‘rtasidagi aloqalarning asos va maqsadlari to‘g‘risida shartnoma imzolandi. Bu shartnomada mamlakatlarimiz o‘rtasidagi ma’naviy, ruhiy yaqinlik ta’kidlandi. Iqtisodiy va savdo sohasida hamkorlik, madaniyat, fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, sport, turizm va boshqa bitimlar imzolandi. Ikki mamlakat o‘rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga ko‘tarishda 1992-yil aprelida Turkiya Bosh vaziri Sulaymon Demirelning respublikamizga tashrifi katta rol o‘ynadi. Turklarning «Interneer», «O‘zturk», «O‘zyuksal», «Dogu ilag», «Yazeks», «Bursel» va boshqa firmalari O‘zbekistonda keng faoliyat ko‘rsatdi.

Yaponiya dunyo davlatlari ichida birinchilardan bo'lib O'zbekiston mustaqilligini tan olgan davlatlardan biri. 1992-yilning 28-avgustida Yaponiyaning O'zbekistonda faoliyat boshlagan birinchi elchisi Sulilo Edammura O'zbekiston Prezidenti I. Karimovga ishonch yorlig'ini topshirdi. Har ikki davlat o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlik yildan-yilga kengayib bordi. 1994-yilning 16—19-may kunlari O'zbekiston rahbarining Yaponiyaga rasmiy tashrifi bu ikki davlat aloqalarini yanada rivojlantirishda muhim rol o'ynadi.

1992-yil martda O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimovning Xitoyga rasmiy safari bo'ldi. Bu safar davomida 16 ta hujjat imzolandi. XXR raisi Li Shankun Xalq majlislari uyida O'zbekiston delegatsiyasini qabul qilish marosimida: «Xitoy bilan O'zbekiston rahbarlari ikki tomonlama munosabatlarning ko'pgina masalalarini hal etishlari mumkin. Chunki bundan avval ham ikkala mamlakat o'rtasida yaxshi munosabatlar o'rnatilgan edi», — deb ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikka katta baho berdi. Tashrif davomida siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy sohalarda qator bitimlar, jumladan, axborot ayirboshlash, radio-televideniye, banklar, transport, aloqa, sarmoyalarni rag'batlantirish, hamjihatlik, tovarlar yetkazib berish va davlat krediti, sog'liqni saqlash, ta'lim hamda sport masalalari bo'yicha tuzilgan shartnomalar va bitimlar ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga ko'tardi.

O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasidagi aloqalar mustaqillikdan oldin ham ancha rivojlangan edi. O'zbekiston mustaqilligidan keyin bu aloqalar yangi bosqichga ko'tarildi. Ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishida O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mustaqillik arafasidagi Hindistonga tashrifi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Sho'rolar zamonidagi mavjud tamoyillarni buzib, Hindiston bilan mustaqil hamkorlikni kengaytirishga birinchi bo'lib kirishdi. Natijada Hindiston bilan O'zbekiston o'rtasida birinchi marta teng huquqli mamlakatlar kabi iqtisodiy, savdo, ilmiy-texnikaviy, madaniyat, sog'liqni saqlash, fan, texnika, turizm, sport va ommaviy axborot sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitimlar tuzildi. Hindiston yordami bilan Toshkent, Buxoro va Samarqandda zamonaviy mehmonxonalar qurildi. Respublikamizga uskunalar va boshqa xil tovarlar xarid qilish uchun 1993-yilda Hindiston 10 mln. dollar mablag' ajratdi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin Yaqin Sharq mamlakatlari orasida birinchilardan bo'lib Pokiston bosh vaziri Navoz Sharif 1992- yil 27—28-iyun kunlari O'zbekistonga tashrif buyurdi. Tashrif chog'ida ikki mamlakat o'rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik to'g'risida shartnoma, hukumatlar o'rtasida madaniyat, sog'liqni saqlash, fan, texnika, kadrlar tayyorlash, sport va ommaviy axborot sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitimlar imzolandi. 1992-yil avgustida O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimov Pokistonga javob tashrifi bilan bordi. U yerdagi uchrashuvlar, suhbatlar, muzokaralar natijasida ikki mamlakat o'rtasida 5-ta muhim bitim imzolandi. Banklar to'g'risida, investitsiyalarni himoya qilish, elektrlashtirish, irrigatsiya va

melioratsiya, telekommunikatsiya sohasida hamkorlik qilish haqidagi bitimlar o'tgan yillar davomida o'z samarasini berdi. Pokistonning «Tabani korporeyshn», «Lahor», «Pia», «Merkuriy», «Metro garmen tes» va boshqa firmalari O'zbekistonda faoliyat ko'rsatmoqda. 1994-yilda tovar ayirboshlash 4,3 mln. dollarga yetdi.

Eron Islom Respublikasi 1992-yil 10-mayda O'zbekiston bilan diplomatik munosabatlarni o'rnatdi. O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimovning 1992-yil noyabr oyidagi Eronga rasmiy safaridan so'ng mamlakatlarimiz o'rtasida hamkorlik miqyosi yanada kengaydi. 1993-yil yanvar — avgust oylarida, ya'ni faqat 8 oy davomida O'zbekiston va Eron o'rtasida 186,1 ming dollarlik tovar ayirboshlandi. Eronning «Pors grupp», «Sepand grupp» va boshqa firmalari respublikamizda faoliyat ko'rsatmoqda. Bir qancha qo'shma korxonalar tashkil etilgan. 1993-yil aprelida bo'lib o'tgan Eron tasviriy san'at va avgustda o'tkazilgan savdo-sanoat ko'rgazmasi ko'pchilikda yaxshi taassurot qoldirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning qishloq xo'jaligi xodimlari kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi 10-dekabr 2017-yil.
2. Sima E. (2012). Ecological Agriculture and Changing Perception in the Case of Quantity and Quality. The Information and Economic Reference Material Center. Bucharest.
3. B.Yo'ldosheva "MUSTAQILLIK YILLARIDA TOMORQA XO'JALIGINING RIVOJLANISHI" International Journal of Economy and Innovation
4. Sh.Mamajonov."QISHLOQ XO'JALIGIDA ISHLAB CHIQRISHNI KLASTERLASHNI TAKOMILLASHTIRISH"
5. Mirjonovna, Y. B. (2021). Cho'l shamollarining Buxoro shahar tarixida tutgan o'rni. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 637-645.
6. Qishloq xo'jaligi akademiyasi huzuridagi Bozor islohotlari instituti ma'lumotlari (1990-1995 yillar)
7. <https://www.amerikaovozi.com/a/5220890.html>